ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI



13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

№7
2025

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiyaga fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 202 sahifa,
1-iyul, 2025-yil.

**BOSH MUHARRIR:**
**Umarova H. O'. –** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**
**Karimova E'zoza Gapirjanovna –** Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti rektori
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

***TAHRIRIYAT KENGASHI A`ZOLARI***
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)***
***Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
*Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent*
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
***G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Somurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Doniyorov S. M. –"Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'icha falsafa doktori (PhD)***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Umarova H. O‘. –** Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne’matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
**Karimova E’zoza Gapirzhanovna** – Rector of the Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G‘. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
*Qirg‘izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma’murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O‘zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
**Mizayeva F. O.** – **Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA CONTENTS СОДЕРЖАНИЕ

# MUNDARIJA

Konvergent tahririyat mas'uliyati: Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonini yoritish tendensiyalari ......... 16
Doniyorov Salim Musurmonovich

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy bilimlarini shakllantirish ........ 23
Nazarov Odil Omanqulovich

"Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"da ijtimoiy-pedagogik hamkorlikning o'rni ........ 27
Abirova Umida Nazarovna

Maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlarini oldini olish va uning ahamiyati ........ 30
Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li

Pedagogik jarayonda axloqiy qarashlarni shakllantirish usul va vositalari ........ 34
Xudoykulova Shaxlo Mamaniyozovna

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining ijodkorligini rivojlantirishda ta'limiy o'yinlarning ahamiyati ........ 38
Salimova Dilmira Farxodovna

Aholining iqtisodiy axborot savodxonligini oshirishdagi muammo va kamchiliklar ........ 41
Rajabov Asliddin Xolmirzayevich

Favqulodda vaziyatlar yo'nalishi ta'limida muloqotning ahamiyati ........ 44
Boltayev Baxtiyor Yunusovich

Biologiya ta'limi va raqamli texnologiyalar ........ 48
E. Po'latova

Boshlang'ich ta'limga tayyorlov guruhi bolalarini kasbga yo'naltirishda stem yondashuvining ahamiyati ... 51
Egamova Ravshanoy Surobjonovna

O'zbekiston TIMSS natijalarini qanday yaxshilashi mumkin? Innovatsion ta'lim yondashuvlari va samarali strategiyalar ........ 55
G'aynidinov Shayxislom Tolibjon o'g'li

Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda mutaxassislar hamkorligi ........ 60
Isayeva Mushtariy Alisher qizi

Developing Student's Critical Skills Through Technology-Enhanced English Lessons ........ 63
Mavlonova Dildora Shuxrat qizi

Bahrom Ro'zimuhammad she'rlarini o'qitishda integratsiya usulidan foydalanish ........ 67
Nomozova Dilobar Suyun qizi

Aksiologik yondashuvlar asosida bo'lajak pedagoglarda altruizm ko'nikmalarini shakllantirish: bosqichlar va tamoyillar ........ 72
Norboyeva Moxigul Shavkat qizi

3D Modeling of Virtual Chemical Laboratories ........ 75
Qayumov Jamshid Ma'rufjon o'g'li

Fostering Metacognitive Skills in Efl Learners Through Ai-Supported Instruction: a Review of Recent Literature ........ 80
Ruzieva Maftuna

Onlayn va gibrid ta'lim sharoitida mashinasozlik texnologiyasi faniga qiziqishni oshirishning nazariy asoslari ........ 85
Sarimsakova Soxibaxon Raxmonjanovna

Loyihalashtirilgan integral darslar samaradorligi (9-sinflar uchun "Metallar va ularning umumiy xususiyatlari" mavzusida) ........ 88
Sharipova Hakima Shavkatovna

Metacognition and Self-Regulated Learning ........ 92
Turayeva Nazira Ibragimovna

Методические возможности совершенствования обучения научной письменной речи на основе коммуникативно-деятельностного подхода ........ 95
Меденцева Наталья Петровна

Transformatsion jarayonlarda tibbiyot oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari ........ 100
Jonibekov Jasur Jonibekovich

O'zbek milliy musiqasi: boy madaniyat va san'atning ajralmas qismi ........ 105
Rustamova Maxsuma Farxodbek qizi

Sharq va G'arbda tibbiyot fanlarining yaratilishi tarixi ........ 108
Bakayev Najmiddin

Didaktik o'yinlar bola faoliyatining asosiy vositasi sifatida ........ 112
Egamova Madina Qobil qizi

Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarining konvergent-kreativ tafakkurini takomillashtirishning didaktik asoslari ........ 116
Egamova Shukriya Amanovna

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida universal ta'lim faoliyatlari orqali tarbiyaviy maqsadlarga erishish imkoniyatlari ........ 119
G'aybullayeva Nafisaxon Nosirjon qizi

Matematika o'qitishning klassik metodlaridan zamonaviy usullariga o'tish ........ 124
G'ofurov Jamoliddin Xusniddinovich

Jahon miqyosida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari ........ 128
Hoshimova Dilnoza Boymirzoyevna, Mahmudova Zulfiya Homidovna

Bo'lajak o'qituvchilarning prognostik kompetensiyasini rivojlantirish tamoyillari ........ 131
Ikromova Munisa Sheraliyevna

Bo'lajak muhandislarni kasbiy tayyorgarligini grafik ma'lumotlar asosida oshirishning didaktik asoslari ........ 134
Jumanazarova Zuhra Qosimjonovna

Sport va jismoniy tarbiya pedagogikasida innovatsion metodlar ........ 138
Jumanova Iroda Shokirjon qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish ........ 141
Jumayeva Sarvinoz Ilhombekovna

Talabalarda nutqiy tarkibiy tuzilmalarni shakllantirish texnologiyasi ........ 145
Kiyamova Maxbuba Sultanovna

Innovatsion yondoshuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning amaliy jihatlari ........ 148
Mamadiyorov Jamol

Ingliz tili matnlarini o'rganishda 6-sinf o'quvchilarining grammatik kompetensiyasini oshirish va tatbiq qilishning samarali usullari ........ 152
Sharipova Firuza Mehriddinovna

Kar va zaif eshituvchi yuqori sinf o'quvchilarining axborot kompetensiyasini rivojlantirish modeli ........ 155
Tursunov Hojiakbar Hamidullo o'g'li

Maktabgacha ta'limda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – pedagogik muammo sifatida ........ 159
Xallokova Maksudaxon Ergashevna

Altruistik xulq-atvorning shaxsiy va ijtimoiy determinantlari ........ 162
Xatamova Ferangiz Ibodulloyevna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik mahoratini teatr pedagogikasi vositalari orqali rivojlantirishning xorijiy va milliy tajribasi ........ 166
Xudoyberganova Matluba Qulsoxatovna

Refleksiv yondashuvning ta'lim jarayonidagi o'rni va afzalliklari ........ 170
Yodgorova Gulrux Farhodovna

Совершенствование методики формирования компетентности будущих студентов-искусствоведов в условиях цифрового образования ........ 174
Юлдашев Эрграш Сабирович

O'z-o'zini rivojlantirish tushunchasi va uning pedagogik mohiyati ........ 177
Kudenov Temurbek Maxsetbaevich

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida hikoya janrini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish dolzarb muammo sifatida ........ 180
Ergasheva Shoxida Nurmuxammadovna

Ingliz tili darslarini interaktiv tashkil etishda raqamli ta'lim vositalarining o'rni va metodik yondashuvlar ........ 185
Raxmatullayeva Barno Baxtiyor qizi

The Effectiveness of Using Podcasts to Enhance Listening Comprehension and Vocabulary Acquisition in Secondary School English Classes ........ 189
Meliboyev Zuxriddin Isroil ugli

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

O'zbekiston tarixi darslarida pedagogik improvizatsiyani texnologiyalashtirish va raqamlashtirish imkoniyatlari ........ 192

Ergasheva Muhayyoxon G'anijonovna

Tasviriy faoliyat vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning samaradorligi ........ 196

Arslanova Umidaxon Komiljon qizi

# BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA UNIVERSAL TA'LIM FAOLIYATLARI ORQALI TARBIYAVIY MAQSADLARGA ERISHISH IMKONIYATLARI



G'aybullayeva Nafisaxon Nosirjon qizi
Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalari universiteti
Namangan manzili o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy pedagogik tafakkurda ta'lim va tarbiya o'zaro integratsiyalashgan holda, shaxs kamolotining ikkita ajralmas aspekti sifatida qaralmoqda. Boshlang'ich ta'lim bosqichida bu ikki omilning uyg'unligi o'quvchining kognitiv rivoji bilan bir qatorda, uning axloqiy-estetik qarashlari, mehnatga munosabati va ijtimoiy faol pozitsiyasini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynashi yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, refleksiya, tarbiyaviy maqsadlar, psixologik tayyorgarlik, ijtimoiy hamkorlik.

**Abstract:** This article highlights that in modern pedagogical thinking, education and upbringing are considered as two integral aspects of personal development, integrated with each other, and that the harmony of these two factors at the primary education stage plays a decisive role in the formation of the student's cognitive development, as well as his moral and aesthetic views, attitude toward work, and socially active position.

**Key words:** person-centered approach, reflection, educational goals, psychological preparation, social cooperation.

**Аннотация:** В статье подчеркивается, что в современном педагогическом мышлении образование и воспитание рассматриваются как два неотъемлемых аспекта развития личности, интегрированных друг с другом, и что гармония этих двух факторов на этапе начального образования играет решающую роль в формировании познавательного развития ученика, а также его нравственно-эстетических взглядов, отношения к труду и социально-активной позиции.

**Ключевые слова:** личностно-ориентированный подход, рефлексия, образовательные цели, психологическая подготовка, социальное сотрудничество.

## KIRISH

Shu nuqtai nazardan, universal ta'lim faoliyatlari (UTF) tarbiyaviy jarayonni samarali tashkil etishda strategik didaktik vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur maqolada UTFning tarbiyaviy imkoniyatlari chuqur tahlil qilinadi, ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilari kontekstida bu faoliyatlar orqali maqsadli axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasiga erishish imkoniyatlari har tomonlama ko'rib chiqiladi.

Eng avvalo, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlari, ularning psixofiziologik rivojlanish bosqichlari va bu rivojlanishning UTFga tayyorlik darajasiga ko'rsatadigan ta'siri ilmiy-nazariy asosda tahlil qilinadi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu yoshdagi bolalar sezgirlik davrini boshdan kechiradi, ya'ni ular uchun bilimlar emas, balki faoliyat orqali o'zlashtirilgan bilimlar ko'proq samarali hisoblanadi. Shu bois aynan universal ta'lim faoliyatlari orqali bola o'qituvchining subyektiv ta'siridan ko'ra, o'zining faol kognitiv, reflektiv va ijtimoiy faol ishtiroki orqali tarbiyaviy jarayonga kiradi. Bu, o'z navbatida, bolalarda ichki motivatsiya, ijtimoiy hamkorlik va shaxsiy pozitsiyaning shakllanishini ta'minlaydi.

Keyingi bosqichda UTFning axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasiga ko'rsatadigan ta'siri kompleks tarzda yoritiladi. Tarbiyaviy ta'sirlar faqat deklarativ bilimlar emas, balki harakatlar orqali mustahkamlanadi. Axloqiy normalar, go'zallikka estetik sezuvchanlik, mehnatga mas'uliyatli munosabat – bularning barchasi UTF orqali o'quvchining kundalik faoliyatiga singdiriladi. Ayniqsa, reflektivlikni talab qiladigan topshiriqlar, hamkorlikdagi loyiha faoliyatlari, estetik ifoda va yaratuvchanlikni rag'batlantiruvchi mashg'ulotlar orqali bola nafaqat bilim oladi, balki o'z-o'zini anglaydi, munosabat bildiradi va ijtimoiy qadriyatlarga moslashadi. Bu esa tarbiya jarayonini o'quvchilarning ichki ehtiyojlariga mos ravishda individuallashtirish imkonini beradi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy ta'lim texnologiyalari, jumladan, faol o'rgatish metodlari, loyiha asosidagi yondashuvlar, rolli o'yinlar, muammoli vaziyatlar yaratish kabi strategiyalar UTF bilan uyg'unlashtirilgan holda qo'llanilganda, ular tarbiyaviy samaradorlikni keskin oshiradi. Bunday integratsiya pedagogning maqsadga yo'naltirilgan, reflektiv va situativ kompetensiyalariga tayanadi, shuningdek, o'quvchini subyekt sifatida qabul qilgan ta'lim muhitini shakllantiradi. Bu jarayonda ta'limiy va tarbiyaviy vazifalar o'zaro murakkab didaktik konstruktsiyaga birlashadi, natijada shaxsga yo'naltirilgan yondashuv real pedagogik amaliyotga aylantiriladi. Shunday qilib, ushbu bob universal ta'lim faoliyatlarini nafaqat bilim berish vositasi, balki ijtimoiy-axloqiy, estetik va mehnatga oid qadriyatlarni shakllantirish vositasi sifatida qayta talqin qilishga xizmat qiladi. Bu esa boshlang'ich ta'lim bosqichida shaxs kamolotini ta'minlashda integratsiyalashgan tarbiya modelining nazariy va amaliy asoslarini belgilab beradi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichi inson hayotining eng muhim va poydevor davri bo'lib, bu davrda bola shaxsining emotsional, intellektual va ijtimoiy jihatdan shakllanishi yuz beradi. Ushbu bosqichdagi psixologik o'zgarishlar va individual xususiyatlar bolaning nafaqat bilim olish jarayoniga, balki uning universal o'quv faoliyatlariga tayyorlik darajasiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shunday ekan, universal faoliyatlar orqali tarbiyaviy maqsadlarga erishish jarayoni bolaning yoshga oid psixofiziologik va ijtimoiy-pedagogik holatlarini chuqur tahlil qilishni talab etadi.[1]

L.S. Vygotskiy tomonidan ishlab chiqilgan "yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasiga muvofiq, boshlang'ich sinf o'quvchilari murakkab o'quv faoliyatlarini to'liq mustaqil bajarishga hali tayyor bo'lmasligi mumkin, biroq ular kattalar (o'qituvchi yoki tengdosh) ko'magida bu faoliyatlarni bajarishga intiladi. Shunday faoliyat turlari orqali bola nafaqat yangi bilimlarni egallaydi, balki o'zining ichki intellektual salohiyatini ochib beradi. Bu esa universal o'quv faoliyatlarini shakllantirish uchun eng qulay va tabiiy pedagogik sharoit hisoblanadi.[2] Boshlang'ich sinf o'quvchilari odatda 6–10 yosh oralig'ida bo'ladilar. Bu bosqich quyidagi rivojlanish belgilari bilan xarakterlanadi:

- idrok va tafakkurda betaraflikning kamayishi – bola muayyan predmetni ko'proq ma'no bilan bog'lay oladi;
- emotsional sezuvchanlik – ayniqsa ijtimoiy baho, o'qituvchi va tengdoshlarning fikri muhim rol o'ynaydi;
- nutqning mantiqiylik darajasi oshadi – bu tafakkur strukturasining shakllanishi belgisi hisoblanadi;
- faollikning kuchayishi – bola harakat orqali o'rganishga moyil bo'lib boradi;
- maqsadga yo'naltirilganlik vujudga kela boshlaydi – faoliyatda natijani ko'ra olish va unga intilish kuchayadi.

Pedagogik yondashuvlar bola faolligini cheklash emas, aksincha uni maqsadga yo'naltirish, o'z-o'zini anglash va boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak.[3] Universal ta'lim faoliyatlari – bu o'quvchining mustaqil, reflektiv va ijtimoiy yo'naltirilgan bilim olish, muammolarni hal qilish, qaror qabul qilish kabi faoliyat turlarini o'z ichiga oladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bu faoliyatlarga quyidagi jihatlar bo'yicha tayyor bo'lishi mumkin.

- Bilishga bo'lgan qiziqishning tabiiyligi – bu yoshdagi bolalarda o'rganishga nisbatan tabiiy ehtiyoj kuchli bo'ladi (Gippenreiter Y.B., 2005);
- Modellashtirish va o'yin asosidagi fikrlash – abstrakt tushunchalar emas, balki obrazlar va harakatlar orqali o'rganish samaraliroq bo'ladi;
- Mehnatga va ijtimoiy rollarga nisbatan qiziqish – universal faoliyatlar orqali o'quvchilar jamoaviy ishlash, rollarga kirish, mas'uliyatni his qilishni o'rganadilar;
- Reflektiv savollarga javob bera olish – "men nima o'rgandim?", "nimasi qiyin bo'ldi?", "nima uchun bu muhim?" kabi savollar orqali bola o'z faoliyatini anglay boshlaydi. Bu tayyorgarlik bosqichlari o'qituvchi tomonidan to'g'ri tashkil etilgan ta'lim muhiti orqali yuzaga chiqadi. Masalan, shaxsga yo'naltirilgan, differensial yondashuvlar bilan boyitilgan dars jarayoni universal faoliyatlarga oson moslashishni ta'minlaydi.[4]

Universal o'quv faoliyatlariga tayyorgarlik darajasini oshirish uchun quyidagi shart-sharoitlar ta'limiy muhitda mavjud bo'lishi zarur. Metodik jihatdan boy va psixologik jihatdan qulay ta'lim muhiti; O'yinli, tajribaviy, loyihaviy faoliyatlarga asoslangan darslar; Rag'batlantiruvchi va emotsional ijobiy munosabatni kuchaytiruvchi didaktik yondashuvlar; Har bir o'quvchining individual tempini hisobga oluvchi adaptiv metodikalar.

1 Juraev S. Oliy ta'lim va tarbiya integratsiyasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2021. – 118 b. – B. 63.
2 Выготский Л.С. Мышление и речь. – Москва: Педагогика, 1982. – С. 135
3 Tenorth H.-E. Erziehung und Bildung in der modernen Gesellschaft. – Wiesbaden: Springer VS, 2014. – 192 S. – S. 106.
4 Abdullayev E. Kasbiy ta'limda tarbiya kompetensiyasi. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2022. – 136 b. – B. 77.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Shu nuqtai nazardan, universal ta’lim faoliyatlarini samarali shakllantirish – bu o‘qituvchidan yuqori darajadagi metodik refleksiya, o‘quvchilarning psixologik rivojlanish xususiyatlarini chuqur bilish va ular bilan empatik muloqot o‘rnata olish malakasini talab etadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun universal ta’lim faoliyatlarini samarali shakllantirishda ontogenezning muayyan bosqichlariga tayanish muhimdir. Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, bu yoshdagi bolalar konkret operatsiyalar bosqichida bo‘lib, ular aniq, ko‘zga ko‘rinadigan misollar asosida fikrlaydilar va real muammolarni hal qilishga qodir bo‘ladilar.[5] Demak, universal faoliyatlar kuzatish, sinash, solishtirish, tuzish kabi harakatlarni o‘z ichiga olgan bo‘lishi, o‘quvchining ko‘rgazmalilik va obrazlilik asosida o‘rganishiga mos kelishi, har bir topshiriqni hayotiy kontekstda tushuntirish va shaxsiy tajriba bilan bog‘lash imkonini berishi kerak. Vygotskiyning fikricha esa bola rivojlanishi ijtimoiy faoliyat va muloqotda shakllanadi. Bu esa shuni anglatadiki, universal o‘quv faoliyatlarining asosiy shakllari – guruhli ishlash, rolli o‘yinlar, muammoli topshiriqlar orqali ijodiy yondashuv, ijtimoiy ong va shaxsiy javobgarlikni tarbiyalashga xizmat qiladi.

1-jadval: **O‘quvchilarning universal faoliyatlarga tayyorlik darajasini aniqlashda quyidagi ilmiy asoslangan mezonlar tizimini taklif etish mumkin**

| Mezonlar | Ko‘rsatkichlar |
|---|---|
| Bilish faolligi | Mustaqil savol berish, mantiqiy bog‘liqlikni izlash |
| Refleksivlik | O‘z fikrini tahlil qila olish, “nima uchun” savollariga javob berish |
| Ijtimoiy o‘zaro ta’sir | Guruhda ishlay olish, boshqa fikrni tan olish, tengdosh bilan murosa qilish |
| Emotsional tayyorgarlik | Faol ishtirok, darsga bo‘lgan qiziqish, ijodiy tashabbus |
| Axloqiy idrok va baholash qobiliyati | Yaxshi/yomonni ajrata olish, xatti-harakatini anglash |

Bu mezonlar asosida o‘quvchining UOFga tayyorligi aniq baholanadi va individual yondashuv imkoniyati oshadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining universal ta’lim faoliyatlariga tayyorlik darajasini oshirish maqsadida quyidagi strategik yondashuvlar taklif etiladi:

- ijobiy psixologik muhit yaratish – har bir o‘quvchining muvaffaqiyatini e’tirof etish, xatolardan qo‘rqmaslikka o‘rgatish, emotsional qo‘llab-quvvatlash;
- o‘yinli va ijodiy mashg‘ulotlardan keng foydalanish – bu yoshdagi bolalar uchun rasm chizish, dramalashtirish, badiiy ifoda, eksperimentlar orqali bilim olish samaralidir;
- tarbiyaviy dialog tashkil qilish – o‘qituvchi-o‘quvchi, o‘quvchi-o‘quvchi o‘rtasida axloqiy, estetik va ijtimoiy masalalarni muhokama qilish orqali o‘z fikrini asoslash va eshitishga o‘rgatish;
- monitoring va formatif baholash tizimi – o‘quvchining individual rivojlanishini izchil kuzatib borish, izohli tahlil, fikrga asoslangan baho berish.
Bu metodlar reflektiv tafakkurni rag‘batlantiradi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Amaldagi ta’lim tizimida o‘quvchilarning universal faoliyatlarga tayyorligi ko‘pincha faqat “bilim darajasi” bilan baholanmoqda. Natijada, mustaqil fikr, aks ettiruvchi tahlil, ijtimoiy faollik, estetik va axloqiy sezgirlik kabi shaxsiy rivojlanish mezonlari ikkinchi darajaga tushib qolmoqda. Bu esa boshlang‘ich ta’limning tarbiyaviy va ijtimoiy funksiyalarini cheklab qo‘yadi. Shu bois, universal ta’lim faoliyatlarini shakllantirishda shaxsga yo‘naltirilgan, aks ettiruvchi, madaniy kontekstga mos yondashuvlar ustuvor bo‘lishi lozim. Bolalikning boshlang‘ich ta’limga to‘g‘ri keluvchi davri (6–10 yosh) inson psixikasining murakkab shakllanish bosqichidir. Bu davrda shaxs tarkib topa boshlaydi, uning o‘zini anglashga bo‘lgan qobiliyati, nutqiy va mantiqiy tafakkuri rivojlanadi, axloqiy me’yorlarga nisbatan sezgirlik kuchayadi. Bu esa universal ta’lim faoliyatlariga (UOF) o‘quvchilarni jalb etishda ularning yosh psixologiyasiga asoslanishni zarur qiladi. Psixolog olima Gippenreiter Y.B. ta’kidlaganidek: “Har bir bola o‘z rivojlanishida ichki resurslarga ega, pedagogning vazifasi – bu resurslarni faollashtirishdir”. Demak, o‘quvchilarning universal faoliyatlarga tayyorligini ularning shaxsiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda baholash muhim. Yosh xususiyatlariga mos ta’lim uslublari o‘quvchining bilimga bo‘lgan ehtiyojini ochib berishga xizmat qiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari abstrakt tushunchalarni emas, balki aniq va obrazli,

5 Piaget J. The Psychology of the Child. – New York: Basic Books, 1972

hayotiy tajribaga yaqin bilimlarni yaxshi oʻzlashtiradilar. Shuning uchun UOFni shakllantirishda quyidagilar muhim metodik yoʻnalishlar sanaladi:

- muammoli oʻqitish – oʻquvchini izlanishga undaydi, bu orqali tafakkur faoliyati kuchayadi;
- didaktik oʻyinlar – bolada oʻrganishga boʻlgan motivatsiyani saqlab qoladi;
- dialogik yondashuv – bolani fikr almashishga, oʻz nuqtai nazarini asoslashga oʻrgatadi;
- loyihaviy faoliyat – bola mustaqil rejalashtirish, tanlov qilish, natijani baholash kabi harakatlarni bajaradi.

Bu metodlar universal faoliyat turlarining (kognitiv, kommunikativ, aks ettiruvchi va ijtimoiy) har biriga mos keladi va shaxsiy oʻsish uchun qulay poydevor yaratadi. Universal faoliyatlarga tayyorlik darajasi har bir oʻquvchida har xil boʻlishi mumkin. Bu: intellektual rivojlanish darajasi, oilaviy muhit, ilgari egallangan bilim va koʻnikmalar, motivatsiya, emotsional holat kabi omillarga bogʻliq. Shuning uchun zamonaviy didaktika shaxsga yoʻnaltirilgan taʼlimni ilgari suradi. Bu yondashuvda oʻquvchi: oʻz tempida oʻrganadi, mustaqil fikrlaydi, individual yondashuv asosida rivojlanadi. Oʻqituvchi esa shunchaki bilim beruvchi emas, balki yoʻlboshchi, kuzatuvchi va reflektiv sherik sifatida maydonga chiqadi.




1-rasm: **Universal oʻquv faoilyatlariga tayyorgarlik darajalari**

Shunday qilib, boshlangʻich sinf oʻquvchilarining yosh xususiyatlari – ularning oʻziga xos psixologik ehtiyojlari, bilishga boʻlgan tabiiy qiziqishi, sotsial izlanishi va emotsional sezgirligi – universal oʻquv faoliyatlarini bosqichma-bosqich, kompleks va didaktik asoslangan holda shakllantirish uchun qudratli imkoniyatdir. Bu imkoniyatdan samarali foydalanish oʻquvchining kelajakdagi shaxsiy va ijtimoiy muvaffaqiyatining poydevorini yaratadi. "Bilish faolligi" mezoni boʻyicha: tahlilga koʻra, oʻquvchilarning aksariyati oʻrtacha darajada bilimga intilmoqda (50 %), biroq 20 % past darajada qolgan. Bu oʻqituvchilar tomonidan topshiriqlarda izlanishga yoʻnaltiruvchi elementlarning yetishmasligi bilan bogʻliq boʻlishi mumkin. "Refleksivlik" darajasi: 40 % yuqori darajada refleksiv fikrlashga ega oʻquvchilar mavjud, ammo 15 %da bu qobiliyat juda past. Refleksiya savollariga javob berish va oʻzini tahlil qilish faoliyati darslarda doimiy integratsiyalashmagan. "Ijtimoiy hamkorlik" salohiyati: 25 % oʻquvchilar past darajada guruhli ishlashga qodir. Bu esa ijtimoiy faoliyatlarning (rol oʻyinlari, jamoaviy muhokamalar) muntazam qoʻllanilmasligi bilan izohlanadi. "Emotsional tayyorgarlik" boʻyicha: tashabbus koʻrsatish, ishtirokni davomiy saqlab qolish borasida 18 % oʻquvchi past koʻrsatkichga ega. Bu esa darslarda hissiy qoʻllab-quvvatlash yetarli emasligini koʻrsatadi. "Axloqiy baholash qobiliyati": 30 % oʻquvchi bu mezon boʻyicha yuqori darajada baholandi. Shu bilan birga, 22 %da bu salohiyat pastligicha qolmoqda.

Axloqiy qaror qabul qilish boʻyicha mashgʻulotlar yetarli emas. Bilish faolligini oshirish uchun muammoli vaziyatlar asosida qurilgan savol-javob mashgʻulotlari, "Qanday fikrdasan?" turidagi ochiq savollar, topqirlik va kuzatuvga asoslangan oʻyinlar qoʻllash tavsiya etiladi. Refleksiv fikrlashni rivojlantirish uchun har dars oxirida "Men bugun nimalarni oʻrgandim?", "Nima qiyin boʻldi?" kabi savollarni yozma yoki ogʻzaki shaklda baholash, shaxsiy portfoliolar va kundaliklar yuritish foydalidir. Ijtimoiy hamkorlik koʻnikmalarini shakllantirish uchun

kooperativ o'qitish usullari – "Think–Pair–Share", kichik guruhlarda loyiha ishlab chiqish, o'zaro fikr almashish, bahs-munozara olib borish mashg'ulotlari muhimdir. Emotsional tayyorgarlikni kuchaytirish uchun pozitiv psixologiyaga asoslangan rag'batlantirish, o'yin orqali darsga jalb qilish, stressni kamaytiruvchi ijobiy kommunikatsiya va tan olish (e'tirof) usullaridan foydalanish tavsiya etiladi. Axloqiy baholash salohiyatini rivojlantirish uchun esa axloqiy voqealar, hikoyalar asosida bahsli savollar berish, hayotiy vaziyatlarga baho berish va axloqiy qarorlar chiqarish muhokamalari samarali bo'ladi.

## XULOSA

Boshlang'ich ta'lim bosqichi – shaxs rivojlanishining psixologik, axloqiy va ijtimoiy asoslari shakllanuvchi poydevor davr bo'lib, bu bosqichdagi o'quvchilarning yosh xususiyatlari universal o'quv faoliyatlarini shakllantirish jarayonida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, 6–10 yoshli bolalarning bilishga bo'lgan tabiiy ehtiyoji, faol o'rganish istagi, emotsional sezgirligi va ijtimoiy faoliyatga intilishi universal faoliyatlarning samarali shakllanishi uchun qulay sharoit yaratadi.

Psixologik-pedagogik adabiyotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv va affektiv rivojlanish jarayonlari – reflektiv fikrlash, o'z fikrini ifoda qilish, muammoli vaziyatlarda yo'nalish topish, axloqiy tanlov qilish kabi faoliyatlarga asos bo'lishi mumkinligi qayd etilgan (Piaget, Vygotskiy, Erikson va boshqalar). Demak, bu yoshdagi bolalarda universal o'quv faoliyatlariga tayyorlik darajasini baholashda faqat akademik bilim emas, balki ijtimoiy-hissiy, axloqiy-idrokiy va estetik-ijodiy salohiyat ko'rsatkichlari ham inobatga olinishi lozim.

Universal faoliyatlarga tayyorlik darajasini aniqlovchi mezonlar (bilish faolligi, refleksivlik, ijtimoiy hamkorlik, emotsional tayyorgarlik, axloqiy baholash qobiliyati) asosida o'quvchilarning individual holatlarini tahlil qilish pedagogik yondashuvning aniqligi va samaradorligini oshiradi. Bu jarayonda o'qituvchi o'z faoliyatini shaxsga yo'naltirilgan, reflektiv va empatik yondashuvlar bilan boyitishi zarur. Shuningdek, universal ta'lim faoliyatlariga tayyorlikni shakllantirish va rivojlantirish uchun quyidagi shart-sharoitlarning mavjudligi dolzarb ahamiyat kasb etadi: rag'batlantiruvchi ta'lim muhiti, o'yinli va loyihaviy mashg'ulotlar, ijobiy kommunikatsiya, shaxsiy muvaffaqiyatni e'tirof etish va refleksiya asosida baholash tizimi. Bularning barchasi o'quvchining psixologik himoyalanganligini ta'minlash, uning mustaqil va faol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarurdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlarini chuqur tahlil qilish va ularga mos universal faoliyatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish orqali ta'lim jarayonining tarbiyaviy, ijtimoiy va madaniy samaradorligi izchil ta'minlanadi. Bu esa, o'z navbatida, o'quvchini bilimli, axloqiy barkamol va faol ijtimoiy subyekt sifatida tarbiyalashning asosiy metodologik tamoyiliga aylanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. – T.: Adolat, 2023. – 114 b.
2. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. – T.: Adolat, O'zbekiston, 2021. – 296 b.
3. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. – T.: Adolat, O'zbekiston, 2021. – 204 b.
4. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, NMIU, 2016.
5. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O'zbekiston, 2017. – 48 b.
6. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b.
7. Mirziyoyev Sh. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari [Matn]. – T.: (nashriyot ko'rsatilmagan).
8. Higgins A. Ethics and Education in Teacher Training. – London: Routledge, 2016. – 136 p. – P. 74.
9. Qilicheva M. Tarbiya va shaxs shakllanishi. – Toshkent: TDPU, 2023. – 118 b. – B. 95.
10. Mamatqulov R. Tarbiyaviy faoliyatning pedagogik negizlari. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2020. – 104 b. – B. 63.
11. Nishonxo'jayev B. O'qituvchi shaxsini shakllantirishda tarbiyaning roli. – Toshkent: Ma'naviyat, 2021. – 96 b. – B. 52.
12. Qosimov X. Pedagogik refleksiya va tarbiya kompetensiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022. – 122 b. – B. 88.
13. Otaxonova E. Pedagogik jarayon va tarbiyaviy mazmun. – Toshkent: TDPU, 2022. – 110 b. – B. 74.
14. Fullan M. The New Meaning of Educational Change. – New York: Teachers College Press, 2007. – 256 p. – P. 96.
15. Гиппенрейтер Ю.Б. Общаться с ребёнком. Как? – Москва: АСТ, 2005. – 41 с.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha) |
| 13.00.07 | Ta'limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov
**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2025. №7**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.